

OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA GENDER TENGLIGI: YANGI O‘ZBEKISTON RIVOJLANISHINING MUHIM ISTIQBOLI SIFATIDA

Bo‘riyeva Husnida Quvvat qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblangan xotin-qizlarning huquq va erkinliklari va gender tengligini ta‘minlash masalalari va ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalar haqida va bundan tashqari mamlakatimizda so‘ngi yillarda bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar xususida hamda ushbu siyosatni amalga oshirishdagi ishlardagi muammolar, ushbu siyosatning mamlakatimiz taraqqiyoti yo‘lidagi ahamiyati haqida fikr mulohazalar takliflar va xulosalar keltirilgan.

***Kalit so‘zlari:** Oilaviy-huquqiy munosabatlar, rivojlanish, xotin-qizlar, gender tengligi, qonun hujjatlari, ijtimoiy hayot, siyosiy barqarorlik.*

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНО-ПРАВОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ: КАК ВАЖНАЯ ПЕРСПЕКТИВА РАЗВИТИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье собраны мнения, предложения и выводы по таким вопросам, как права и свободы женщин и вопросы обеспечения гендерного равенства и расширения прав и возможностей женщин, которые считаются актуальными на сегодняшний день, а также о мерах, реализуемых в этом направлении в последние годы в нашей стране, а также проблемах в реализации этой политики, значении этой политики для развития нашей страны.

***Ключевые слова:** Семейно-правовые отношения, развитие, женщины, гендерное равенство, законодательство, общественная жизнь, политическая стабильность.*

GENDER EQUALITY IN FAMILY-LEGAL RELATIONS: NEW AS AN IMPORTANT PROSPECT FOR THE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article contains opinions, suggestions and conclusions about issues such as women's rights and freedoms and issues of ensuring gender equality and women's rights and opportunities expansion, which are considered to be urgent issues today, as well as about the measures implemented in this regard in recent years in our country, as well as the problems in the implementation of this policy, the importance of this policy for the development of our country.

Key words: *Family-legal relations, development, women, gender equality, legislation, social life, political stability.*

KIRISH

Jahonda rivojlangan davlatlar borki, ularning barchasi huquqiy demokratizm, adolat, tenglik, qonuniylik kabi tamoyillarni mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibi sifatida qarashadi. Bizning mamlakatimizda ham bu tamoyillar qonunchiligimizning asosini tashkil etadi. Xususan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ularning huquq va erkinliklarining to'la ta'minlanganligi, qonunchiligimizda mustahkamlangan.

Inson taraqqiyoti, ularning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini ta'minlash uchun jamiyatimizning barcha sohalarida ayollar va erkaklarning tengligini amalda ta'minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda.

Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va ma'daniyat ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Jamiyatimizda gender tenglikni ta'minlash maqsadida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qabul qilingan, 2019-yil 2-sentyabrda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilinganligi alohida e'tiborga molik hodisadir. Ushbu qonun 32 ta moddadan iborat qilib tuzildi. Mazkur qonun yurtimizdagi gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan asosiy qonun hujjati hisoblanib, unda ilk bor "gender " tushunchasiga ta'rif berildi.

Gender tenglikni ta'minlash masalasi dunyo miqyosida xususan, 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil topishi bilan boshlangan va BMT ustavida erkaklar va ayollar teng huquqli ekanligi e'tirof etildi. Bu borada BMT bosh

kotibi Antonio Guterrish "Qayerdagi siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlar faol ishtirok etayotgan bo'lsa, o'sha joyda iqtisodiyot o'smoqda, barqarorlik mustahkamlanmoqda va fuqarolarning farovonligi yuksalmoqda" deb ta'kidlangan.

Mamlakatimizni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan ko'pgina dasturlarda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish bo'yicha rejalar va vazifalar kiritilgan. Masalan, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan maqsadlar orasida ham "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash ularni jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" alohida maqsad sifatida kiritilgan. Jumladan, bularga quyidagilarni kiritish mumkin.

— Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin qizlarning huquqlari va qonuniy mafaatlarni ta'minlash

— Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish

— Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish

— Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish.

— Turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko'paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash

— Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash

— "Ayollar daftari" bilan manzilli ishlash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolari o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Yuqoridagi maqsadlarni amalda ijrosini ta'minlash yuzasidan Oliy Majlis Senatida xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Alohida gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilib, u xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi ishlarning holati to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etishi belgilab qo'yildi. Bu kabi qonun hujjatlarining qabul qilinishi jamiyatimizda xotin qizlarga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni jamiyatimizdagi mavqegini mustahkamlash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ularning faolligini oshirish

yoki davlat boshqaruvi, mahalliy hokimyat organlari, siyosiy partiyalar faoliyatida xotin-qizlarning o'rni va rolini oshirishda ahamiyatli bo'ldi.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyat kasb etishi bugungi kunda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, davlat fuqarolik xizmatchilarining 27,7 foizini xotin-qizlar tashkil etayotganini, partiyalarda 48 foiz, oliy ta'limda 49 foiz, tadbirkorlikda 35 foizni tashkil etmoqda. Bu o'tgan yillardagi foiz ko'rsatgichlaridan ancha yaxshi natija hisoblanadi. Xuddi shu kabi xorijiy mamlakatlarning fuqarolik xizmatlarida xotin-qizlar ulushini solishtiradigan bo'lsak bu Rossiyada 73 foiz, Buyuk Britaniyada 53,8 foiz, Fransiyada 61 foiz, Avstraliyada 60 foiz, Qozog'istonda 56 foiz, Kanadada 55 foiz, Italiyada 53 foiz va AQSHda 44 foizni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki hali ham past darajada, ochiq aytishimiz kerakki bizda mentalitetimizdan kelib chiqqan holda "ayol kishi oila bilan", "ayol kishining o'rni oilada" kabi qarashlar ko'pchilik ongida o'rnashib qolgan. Yoki oladigan bo'lsak, ayol kishi erkak kishidan pastroq turishi kerak degan fikrlar xalq orasida qulog'imizga chalinib turishi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham jamiyatga qaraydigan bo'lsak xotin-qizlarga ishonchning tushishi ularning ko'p hollarda faqat oila turmush bilan shug'ullanib qolishi kabi hollarga ham guvoh bo'ldik. Ming afsuski, ayollar va qizlarni shaxsiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan erkaklar kam. Ko'p hollarda guvohi bo'lamizki oilalarda qiz farzandni o'qitishni istashmaydi, balki ularni tezkor turmushga berishga oshiqishadi. Vaholanki, jamiyat uchun bo'lajak yetuk kadrlarni onalar, xotin-qizlar tarbiyalaydi. Ammo o'zi yetarlicha ta'lim olmagan ayol farzandiga ham ta'lim-tarbiya berishda bir muncha qiynaladi.

O'ylaymanki, gender tengligi, xotin-qizlar huquq va erkinliklari kabi tushunchalar, xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning boshlanishi bu oila hisoblanadi. Shuning uchun ham gender tenglik masalalarini biz oiladan boshlashimiz kerak. Yosh avlod ko'z o'ngida xotin-qizlarga bo'lgan munosabatni biz oiladan shakllantirib borishimiz kerak. Chunki bola onasiga, opa-singlisiga oilada qay darajada munosabat bildirilgan bo'lsa, ertaga jamiyatda ham bu munosabatlarni shu holda takrorlaydi. Shunday ekan bu jarayonni dastlab oiladan shakllantirib borgan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gender tenglik siyosati jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirish bilan birgalikda jamiyat barqarorligini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Gender tenglikning jamiyatimizda to'la ta'minlanishi orqali xotin-qizlarning jamiyatda o'rni va roli yanada mustahkamlanadi. Muhtararam

yurtboshimiz bu xususida shunday ta'kidlaydi "...dunyodagi har qanday xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot va madaniyat darajasi, avvalo, ularning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi". Shunday ekan, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tenglik va hurmatni mustahkamlash jamiyatning barcha sohalarida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 28.01.2022-yildagi PF-60-son. www.lex.uz.
2. "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun O'RB 562-son. 02.09.2019.www.lex.uz.
3. Пулатова, Д. А. (2024). ГЛОБАЛ ТАХДИДЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ИСЛОМ ФАЛСАФАСИ АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 457-466.
4. Akmalovna, P. D. (2024). FEATURES OF THE CONCEPT OF MORAL IMPROVEMENT OF PERSONALITY OF CENTRAL ASIA THINKERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(2), 244-251.
5. Po'Latova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFASI AXLOQIY QADRIYATLARI TIZIMIDA ADOLAT TUSHUNCHASIGA ANALITIK YONDOSHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(1), 354-360.
6. Pulatova, D. A. (2025). ISLOM FALSAFIY AN'ANALARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLARINING TARIXIY TAHLILI. *International scientific journal of Biruni*, 4(1), 72-79.
7. <https://uzmarkaz.uz.news/> gender tenglikning jamiyatdagi ahamiyati
8. <http://nhrc.uz/> m11886.